



MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR

Ablakimova Hojiniso Alisher qizi¹

Doniyorova Malohat²

Muhammadiyeva Nilufar³

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi,

² Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi,

³ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ma6069054@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321244>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

millat ,konfessiya ,tuyg'u ,elat .

ANNOTATSIYA

O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, tinch va xotirjam yashash baxti kaliti bo'lgan , totuvlik va osoyishtalik ,tinchlikni ta'minlab turadigan ustunlar haqida so'z boradi. Tadqiqot bo'yicha turli manbalar o'rganilib , natijalari kerakli tadqiqot doirasiga kiritildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 136 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi . Har bir millat - Yaratganning mo'jizasidir. Bu olamdagi tabiiy rang - baranglik bilan jamiyatdagi milliy o'ziga xoslik dialyektikasini ifodalaydi. Ushbu maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyati haqida bayon etilgan.

Azaliy xalqimizning yuksak fazilatlari sabab bugun ko'plab millat va din vakillari yurtimizda tinch va ahil yashab ,hayot kechirmoqdalar.

Respublikamizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab avaylashga ,barcha fuqarolarga o'z e'tiqodi bilan bog'liq a'nanalarni amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga ,dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga ular o'rtasida qadimiy mushtarak a'nanalarni rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

Bu esa ,o'z navbatida , mamlakatimiz ravnaqi ,jamiyat taraqqiyoti ,umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga katta

xizmat qo'shmoqda.Respublikamizda 16ta diniy konfessiya vakillari ahil - inoq yashamoqdalar.

Abdulla Avloniy bu borada shunday degan edi :,, Qaysi bir millatning orasida birlik ko'tarilib ,nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa ,ul qavmning inqiroz dunyosiga yuzlanganligi tarix sahifalaridan ma'lumdir".

Ba'g'ri keng yurtda yashayotgan o'zbek ,qoraqalpoq ,rus ,qozoq yoki boshqa millatga mansub bo'lsa ham ,barchasi bir diyorning farzandlaridir.Shu vatanda tug'ilib o'sgan har bir insonning ongiga ahil ,birdam yashash naqadar ulug' fazilat ekanligi bolalikdanoq singdirib ulg'aytirganlar.



Millatlarning ichki ruhiy salohiyati ,yaratuvchanlik qobiliyati ,matonati ,tinimsiz mehnati,tadbirkorligi va o'ziga xosligini rivojlantirish asosida hozirgi zamon sivilizatsiyasi yuzaga keldi.Mutaxassislarning fikricha ,yer yuzida uch mingga yaqin millat bo'lib ,insoniyatning o'rta hisob bilan 96 %ni birlashtiradi.Qolgan 4% ellat va qabilalardir.

O'zbekiston poleitnek davlatlar qatoriga kiradi.Asrlar davomida bu yerda o'zbeklar bilan birgalikda tojiklar ,qoraqalpoqlar ,qozoqlar ,turkmanlar ,uyg'urlar va boshqa xalqlarning vakillari ahil va inoq yashab kelganlar.Shuni aytish mumkinki , mamlakatimizning ko'p millatligiga xalqimizning ochiqko'ngilligi va mehmondo'stligi ham sabab bo'lgan.Bu mintaqadan o'tga Buyuk ipak yo'li esa iqtisodiy ,madaniy ,ma'naviy aloqalarning kengayishiga xizmat qilgan.Shu o'rinda ayrim dalilarga murojaat qilamiz:

Diniy bag'rikenglik bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni ,o'zini ifodalash va inson alohidaligini namoyon qilishning xilma -xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishini anglatadi.Uni bilim samimiyat ,ochiq muloqot hamda hurfikr ,vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Bobur va Boburiylar amalda Hindistonda vijdon erkinligini ta'minladi.Aynan shu siyosatni yuritish orqali diniy e'tiqod tufayli fuqarolar o'rtasidagi janjallar chiqishi mumkin emasligi , bu barcha dinlarning muqaddas kitoblari mazmun - mohiyatidan kelib chiqishini mafkuraning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida „Hamma uchun vijdon erkinliklari kafolatlanadi.Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega .Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deyilgan.Demak fuqarolar o'z amr qilgan

xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmasliklari lozim.Respublikada 2250 dan ortiq diniy tashkilot ,shu jumladan ,O'zbekiston Musulmonlar idorasi ,rus pravoslav cherkovi „Toshkent O'rta Osiyo ,Evangil xristian baptislar cherkovlari ittifoqi ,Rim katolik cherkovi ,to'liq injil xristian markazi ,O'zbekiston bibliya jamiyati ,2000 mingga yaqin masjid ,163 ta xristian cherkovi ,7 ta yahudiylar jamoasi ,7 baxoiylar jamoasi ,2ta krishnani anglash jamiyati va 14ta diniy oliy o'quv yurti (1 ta islom ma'xadi ,10 madrasa va 1ta pravoslav va 1ta to'liq injil xristian seminariyasi)davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlar rivojini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: birinchidan millatlararo munosabatlar jamiyatning siyosiy -huquqiy barqarorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib ,u o'z navbatida etnik muvozanatni va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi.Ikkinchidan jamiyatda har bir millatning urf-odat ,a'nana qadriyatlarini singari o'ziga xos xususiyatlari mavjudki , bu narsalar boshqalardan hurmat va e'tiborni talab etadi. Uchinchidan ,jamiyatda ma'naviy dunyoqarashning pastligi ya'ni boshqa millatga nisbatan o'z millatini ustun quyish ,o'zga urf - odat ,madaniyat va a'nanalarni mensimaslik ham millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.To'rtinchidan ,fuqarolik jamiyatining istiqbolini tashkil etish uchun milliy madaniy markazlar va milliy tipdagi tashkilotlar faoliyatini umumdavlat va umumxalq manfaatlariga muvofiqlashtirish umumtaraqqiyot tomon yo'naltirish lozim.Beshinchidan ,demokratik jamiyatda millatlararo munosabatlarda muvozanatni ta'minlashda har bir millatga xos etnopsixologiyani inobatga olish talab etiladi.

Dunyodagi barcha yaxshilik va yangilanish ,bunyodkorliklar avvalo ,insonlar



,turli mlat vakillari o'rtasidagi samimiy ,do'stona munosabatlar samarasi o'laroq amalga oshiriladi.Negaki,do'stlik -totuvlik va hamjihatlik singari ijobiy xislatlarga tayangan holda o'zaro ishonch va mehr -oqibatni yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida ,avvalo ,inson manfaati ,uning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadi turadi.Fuqarolar manfaatini tinchlik va osoyishtalik ,o'zaro hurmat, mehr -oqibat ,hamjihatlik muhitini yaratish orqali ta'minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq ,inqirozga duch kelgan sharoitda ko'plab mintaqalarda konfessiyalararo va millatlararo ziddiyatlar kuchayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.Shu bois ,boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega.O'zbekistonga aholining ko'p millatli bo'lishiga ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishining qulay omili sifatida qaralmoqda.Ijtimoiy - iqtisodiy barqarorlikni saqlash ,dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish hisobiga O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'si maydonda oshib bormoqda.

Xususan mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish ta'lim yetti tilda olib boriladi.O'zbekiston Milliy teleradikompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda,o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.

So'nggi to'rt yilda millatlararo va din sohasida 50 dan ortiq qonun hujjatlari va 40ga yaqin qarorlar qabul qilindi.Bu huquqiy hujjatlarning aksariyati fuqarolarning dini va millatidan qa'ti nazar , huquq va erkinliklarini kengaytirish ,shu jumladan ,jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatini oshirishga qaratilgan.Masalan diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risida qaror qabul qilish vakolati ijro hokimiyati-

adliya organlaridan sudlarga o'tkazilib ,ularning faoliyati erkinligining huquqiy kafolatlari mustahkamlanadi.Diniy tashkilotni ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji miqdori besh baravarga kamaytirildi,hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirildi.Bundan buyon diniy tashkilotlar faqat yilda bir marta hisobot taqdim etadi.

Jumladan ,Prezidentimizning 2018 yili 16 apreldagi „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi " qaroriga muvofiq ,Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi.

Kengash tarkibi 9nafardan 17 nafar a'zoga -O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.e'tiborli jihati ,kengash a'zolariga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi.Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O'zbekistondagi mavjud diniy ijtimoiy jarayonlarni muhokoma qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat .

Mazkur sohada olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018 -yilda AQSH davlat Departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik borasida,alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar" ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin ,e'tiborli jihati 2020 yil 13 oktabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zolariga uch yil muddatga-2021-2023 yillarga saylandi.Mamlakatimiz uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlatdan 169tasi ovoz berdi.Bu saylovda eng ko'p ovoz olgan davlat aynan bizning yurtimiz



bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'i nazar inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak mubolog'a bo'lmaydi.

Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va ma'suliyatli sube'kt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro

hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi. Jumladan Konstitutsiyamizning 18 moddasi: barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafiy qomusiy lug'at. Q. Nazarov tahriri ostida - Toshkent. Sharq. 2004.
2. Mamnazarov .N. Mustaqillok va milliy -etnik jarayonlar - T. TMI, 2004 -7 bet.
3. Malikova. G.R. Ismoilova G.S., "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida " gi qonuniga sharh .-O'zbekiston .2009 .B .27.
4. Z. Zamonov, O. Mahmudov va b. Tarbiya -8 sinf ., Zamin nashr". 2020 .b 12 ,13 .
5. [WWW.UZ .GOOGLE .COM](http://WWW.UZ.GOOGLE.COM).